## Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti Farg‘ona filiali






# “MAKTABGACHA TA’LIM VA TARBIYANING ME’YORIY-HUQUQIY HUJJATLARI” MODULI

## 2 - Mavzu: Jismoniy tarbiya va sport sohasiga oid qonun va qonunosti hujjatlari, ularning mazmuni

O‘qituvchi: Tishabayeva Irodaxon Rasulovna

# Reja:

1. O‘zbekiston Respublikasi “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi qonuni. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishga oid farmonlari va qarorlarining mazmuni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining jismoniy tarbiya va sport sohasini rivojlantirishga oid qarorlari.

3. Maktabgacha ta’lim tizimida korrupsiyaga qarshi kurashishning huquqiy asoslari va uning oldini olish omillari.

# O‘zbekiston Respublikasi “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi Qonuni. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishga oid farmonlari va qarorlarining mazmuni.



# “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida” qonun

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi tomonidan 1992-yil 14- yanvarda qabul qilingan. (28 moddadan iborat)

2000-yil 26-mayda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qarori bilan o‘zgartishlar va qo‘shimchalar kiritilgan. (27 moddadan iborat)

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi tomonidan 2015-yil 24-iyulda qabul qilingan, Senat tomonidan 2015-yil 6-avgustda ma’qullangan yangi tahriri 2015- yil 4-sentabrdan kuchga kirgan. (47 moddadan iborat)

**O‘zbekistonda mustaqillik davrida jismoniy tarbiya va sport sohasining rivojlanishi mamlakatimizda amalga oshirilayotgan siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarning samarali natijasi hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi tomonidan 1992-yil 14-yanvarda “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi qonunning qabul qilinishi mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sport sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlarini belgilab berdi. Ushbu qonun 28 moddadan iborat .**

**2000-yil 26-mayda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qarori bilan 1992-yil 14-yanvarda qabul qilingan “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi Qonuniga o‘zgartishlar va qo‘shimchalar kiritildi va 27 moddadan iborat uning yangi tahriri O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlandi.**

**O‘zbekiston Respublikasining «Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida»gi Qonunining yangi tahriri 2015-yil 4-sentyabrda qabul qilindi. Bu qonun 47 moddadan iborat bo’lib, unda O‘zbekiston hukumatining jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish huquqiy- me’yoriy asoslari Konstitutsiya va xalqaro huquq normalariga mos ravishda yaratildi.**

**2018-yil 5-martdagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 5368-son Farmoni**

**O‘zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport davlat qo‘mitasi va uning hududiy bo‘linmalari negizida O‘zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport vazirligini tashkil etildi.**



**2018-yil 5-martdagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 5368-son Farmoni**

**O‘zbekistonda jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirish, aholi, ayniqsa, yoshlar o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish uchun zarur shart-sharoitlar va infratuzilmani yaratish, mamlakatning xalqaro sport maydonlarida munosib ishtirok etishini ta’minlash borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, jismoniy tarbiya va sportni tashkil etishda qator tizimli muammolar va kamchiliklarni bartaraf qilish va ushbu sohada davlat siyosatini samarali olib borishga va mamlakatning mavjud sport salohiyatidan to‘liq foydalanishni ta’minlash borasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-martdagi «Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-5368-son Farmoni qabul qilindi.**

**Mazkur farmonga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport davlat qo‘mitasi va uning hududiy bo‘linmalari negizida O‘zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport vazirligini tashkil etish belgilandi. Jismoniy tarbiya va sport vazirligining asosiy vazifalari belgilab berildi. O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya instituti qoshidagi Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni ilmiy-metodik ta’minlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish markazi Vazirlik tasarrufiga berildi, Nukus, Samarqand va Farg‘ona shaharlarida uning filiallari tashkil qilindi. O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya instituti negizida O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti tashkil etildi. Shu o’rinda shuni aytib o’tish kerakki, 2023 yil yanvar oyidan boshlab jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi Yoshlar siyosati va sport vazirligi tomonidan amalga oshirilmoqda.**

# O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi



# O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining jismoniy tarbiya va sport sohasini rivojlantirishga oid qarorlari

**2017-yil 23-oktabrda "O‘zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport vazirligi huzurida Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni rivojlantirish kengashini tashkil etish to‘g‘risida"gi 865-son qarori**

**O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2022-yil 4-iyuldagi "Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi 355-son qarori**

**O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2022-yil 4-iyuldagi“Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 355-son qaroriga muvofiq:**

## Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislar kasbiy faoliyati natijalarini baholash MEZONLARI

| IX. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarijismoniy tarbiya instruktorlari | | |
|---|---|---|
| 1. | **Jismoniy tarbiya va sport sohasidagi ma’lumoti:**<br>oliy<br>qayta tayyorlash<br>o‘rta maxsus | <br>10<br>5<br>3 |
| 2. | **Malaka toifasi uchun:**<br>oliy toifa<br>birinchi toifa<br>ikkinchi toifa | <br>10<br>8<br>5 |
| 3. | **Sport toifasi uchun:**<br>xalqaro toifadagi sport ustasi<br>sport ustasi<br>sport ustaligiga nomzod<br>birinchi toifa | <br>10<br>8<br>5<br>3 |
| 4. | **Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha turli ko‘rik-tanlov va musobaqalarda erishgan yutuqlari uchun:**<br>respublika<br>viloyat<br>tuman | <br>20<br>15<br>10 |
| 5. | **Trenerlik yoki trener-instruktorlik faoliyat(lari)i bilan shug‘ullanayotganligi uchun (malaka oshirish davriga muvofiq)** | 10 |
| 6. | **Ochiq o‘quv mashg‘ulotlari va mahorat darslarini tashkil etish:**<br>sport ta’lim muassasasida<br>maktabgacha ta’lim tashkilotida | <br>10<br>5 |
| 7. | **Sport turlari bo‘yicha to‘garaklar tashkil etganligi:**<br>sport turi — 2 ta<br>sport turi — 1 ta | <br>10<br>5 |
| 8. | **Jismoniy tayyorgarlik darajasi sport sinovlari natijasiga ko‘ra:**<br>I o‘rin<br>II o‘rin<br>III o‘rin | <br>10<br>5<br>3 |
| 9. | **O‘quv-uslubiy adabiyotlar tayyorlaganligi:**<br>viloyat yoki respublikada tatbiq etilgan (har bir yakka mualliflikdagi metodik qo‘llanma, o‘quv-uslubiy tavsiya, ishlanmalar uchun);<br>tuman (shahar)da tatbiq etilgan (har bir yakka mualliflikdagi metodik qo‘llanma, o‘quv-uslubiy tavsiya, ishlanmalar uchun);<br>muassasa uchun tatbiq etilgan (har bir yakka mualliflikdagi metodik qo‘llanma, o‘quv-uslubiy tavsiya, ishlanmalar uchun) | <br>10<br>8<br>5 |

Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislar kasbiy faoliyati natijalarini baholash mezonlari bo‘yicha **85** va **undan yuqori** ball to‘plaganlar **muqobil** shaklda malaka oshiradilar.

**56 ball** va **undan yuqori** ball to‘plagan tinglovchilar yakuniy attestatsiyadan **ozod qilinadi.**




# Maktabgacha ta’lim tizimida korrupsiyaga qarshi kurashishshning huquqiy asoslari va uning oldini olish omillari

## O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qonuni

O‘zbekiston Respublikasi Oliy majlisi Qonunchilik palatasi tomonidan 2016-yilning 24-noyabrida qabul qilingan, 2017-yil 3-yanvarda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan imzolangan bo‘lib, 5 ta bob, 34 ta moddadan iborat.



# 2022-yil 29-noyabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligining tashabbusi bilan Farg‘ona viloyati Qo‘qon Universitetida “Korrupsiyaga qarshi kurashishning xalqaro va milliy huquqiy asoslari” mavzusidagi ilmiy-amaliy konferensiya o‘tkazildi.



# E'TIBORINGIZ UCHUN RAHMAT!